

**BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINI RAQAMLI TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA KASBIY TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISH.**

*O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti
dotsenti Sh.Sh.Shaykulov.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini raqamli ta'lif texnologiyalari vositasida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish mavzusining mazmuni, ahamiyati xususida so'z boradi. Shuningdek, musiqa o'qituvchisining jamiyatda pedagog sifatida ahamiyatini oshirish, zamонviy talablar asosida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Metodika, o'qitish metodikasi, individual tushunchasi, individual yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif, ta'lif sifati, innovatsion yondashuv.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ С ПОМОЩЬЮ
ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ.**

*Узбекистан - Финский педагогический институт
доцент Шайкулов Ш.Ш.*

Абстрактный: В данной статье говорится о содержании и значении темы совершенствования профессиональной подготовки будущих учителей музыки средствами цифровых образовательных технологий. Также подчеркивается важность повышения значимости учителя музыки как педагога в обществе и совершенствования его профессиональной подготовки с учетом современных требований.

Ключевые слова: Методика, методика преподавания, индивидуальная концепция, индивидуальный подход, личностно-ориентированное образование, качество образования, инновационный подход.

**IMPROVING PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE MUSIC
TEACHERS THROUGH DIGITAL LEARNING TECHNOLOGIES.**

*Uzbekistan - Finnish Pedagogical Institute
associate professor Sh.Sh. Shaykulov.*

Abstract: This article discusses the content and significance of the topic of improving the professional training of future music teachers by means of digital educational technologies. It also emphasizes the importance of increasing the significance of a music teacher as a teacher in society and improving his/her

professional training taking into account modern requirements.

Keywords: Methodology, teaching methods, individual concept, individual approach, personality-oriented education, quality of education, innovative approach.

Yangi O'zbekistonning taraqqiy etishida millat va jamiyatning ma'naviy yuksalishi, milliy qadriyatlar va madaniyatni rivojlantirish, yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga sifatli tayyorlash muhim rol o'ynaydi. Musiqa ta'limi o'qituvchilari milliy qadriyatlar, madaniyat va ma'naviyatni yosh avlodga yetkazishda ko'prik vazifasini bajaradi. Bunda, bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarning kasbiy mahorat va zamonaviy ta'lim bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi, kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy ta'lim va texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Bugungi kunda musiqa o'qituvchisining kasbiy mahorati va zamonav ta'limga ega bo'lishi zarurat hisoblanadi. Kasbiy mahorati va zamonav ta'limida quydagilar muhim o'rinni tutadi:

-Innovatsion yondashuvlarni qo'llash: interaktiv usullar, raqamli texnologiyalar va audiovizual vositalardan foydalanish;

-Pedagogik kompetensiyalar: musiqiy bilimlarni didaktik va psixologik jihatdan to'g'ri yetkazish ko'nikmalarini rivojlantirish;

-Ijodiy yondashuvlar va o'quvchi - talabalarining qobiliyatini ochishga xizmat qiladigan metodikalar alohida ahamiyatga ega.

Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda innovatsion yondashuvlar, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi lozim. Ta'lim to'g'risidagi Qonunda ko'rsatib o'tilganidek "Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'naliishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlash belgilab qo'yilgan.

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini raqamli ta'lim texnologiyalari vositasida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, zamonaviy raqamli texnologiyalar musiqa ta'limini takomillashtirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash va asoslash dolzar masala sifatida, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kasbiy faoliyatda joriy qilishni o'rganishni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqot ishidan ko'zlangan asosiy maqsad, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida kasbiy tayyorlash metodlarini ishlab chiqishni nazarda tutadi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar butun dunyo bo'ylab barcha ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, natijaga erishish, rivojlantirish uchun yangi vositalarni taqdim etadi. Raqamlashtirish, o'rganilgan saboq va bilimlarni

almashish uchun imkoniyatlar yaratib, odamlarga ko'proq ma'lumot olish va uzoq esda saqlash imkoniyatini beradi. Yaqin kelajakda ta'lim muhitida raqamlashtirish bilan bog'liq katta o'zgarishlar yuz beradi. Kadrlar tayyorlashda elektron ta'lim tizimidan foydalanish, yangi imkoniyatlar va yangi vazifalarni yaratmoqda. Asosiy imkoniyatlar qatoriga ta'limga oid muammolarni hal qilish, ta'lim shaklini tanlashni kengaytirish, bilimlarni uzatish vositalarini ko'paytirish kiradi. Raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi o'rni va rolini anglash zarurati barcha yo'nalishlar singari, o'qituvchilarni kasbiy salohiyatini oshrishda, musiqa o'qitish metodikasi va didaktikasini rivojlantirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarni raqamli ta'lim dasturlari asosida kasbiy tayyorlash, ta'lim-tarbiyada mavjud muammolarini hal qilishda, muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimining raqamli texnologiyalarga tez kirib borishi axborot makonida taqdim etilayotgan ko'p narsalarni jiddiy tahlil qilish va pedagogik asoslashga zarurat tug'ulmoqda.

Ta'lim muhitini raqamlashtirish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin: - mavjud o'quv materiallarini, shu jumladan ma'ruzalar, prezentatsiyalar, darsliklar, mustaqil ish uchun topshiriqlarni va bilimlarni boshqarish vositalarini elektron muhitni tarjima qilish o'qituvchi va bola-o'quvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar uchun interaktiv elektron muhitni shakllantirish, shu jumladan o'qituvchilar uchun elektron sinflar yaratish, veb-seminarlar, munozarali forumla o'tkazish va hk. - yangi turdag'i o'quv vositalarini yaratish: elektron darsliklar, elektron muammoli kitoblar, video ma'ruzalar, elektron topshiriqlar bazasi, kompyuter o'yinlari; - elektron muhit imkoniyatlaridan foydalangan holda ta'limning tubdan yangi shakllarini yaratish – axborotni xayoliy uzatish spektrini kengaytirish, rolli o'yinlar jarayonida turli vaziyatlarni modellashtirish, raqobatbardosh o'yinlarga taqlid qilish va hokazo - sun'iy intellect imkoniyatlarini o'quv jarayoniga tadbiq qilishdir.[3]

Musiqa ta'lim-tarbiyasi serqirra jarayon. Bunda innovations texnologiyalar, xususan, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'proq natijaga erishish imkonini beradi.

1. Raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni aniqlashda quydagilarni asoslash lozim: Raqamli vositalar va platformalarning musiqiy ta'limdagi ahamiyati elektron resurslar va ularning musiqa pedagogikasidagi imkoniyatlari aniqlash.

2. Musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarlikning asosiy bosqichlari. Musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bir nechta muhim bosqichlarni o'z ichiga oladi. Har bir bosqich o'qituvchining pedagogik, ijodiy va texnik

ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Quyida asosiy bosqichlarni ko'rib chiqamiz:

- Nazariy tayyorgarlik;
- Musiqiy ijodiy tayyorgarlik;
- Innovatsion texnologiyalarni bilish;
- Amaliy tayyorgarlik;
- Metodik tayyorgarlik;
- Kasbiy ko'nikmalarni shakllantirish.

Mazkur bosqichlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarini zamonaviy talablar darajasida tayyorlashga imkon beradi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonni yanada samarali qilish uchun muhim vosita hisoblanadi.

3. Innovatsion usullar va dasturlar: Multimediya texnologiyalari, musiqa kompozitsiyalari uchun dasturlar (masalan, Finale, Sibelius), nota tahrirlash va ovoz yozish uchun zamonaviy dasturlardan foydalanish va interaktiv mashg'ulotlarning amaliyoti.

4. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish: Musiqa o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish — bu ularning o'z sohasida yuqori malakali bo'lishi uchun muhim jarayon. Ushbu jarayon o'qituvchining bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlarini mustahkamlashga qaratilgan. Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quydagilardan iborat:

- Pedagogik mahoratni rivojlantirish;
- Ijrochilik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- Raqamli texnologiyalarni qo'llash ko'nikmasi;
- Metodik yondashuvlarni rivojlantirish;
- Madaniy va estetik ko'nikmalarni rivojlantirish;
- O'z-o'zini rivojlantirish, o'z pedagogik va ijodiy ishlarini doimiy tahlil qilish va samaradorligini oshirish.

Kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi nafaqat texnik va metodik jihatdan, balki shaxsiy fazilatlari orqali ham tarbiyalanuvchilar va o'quvchilar uchun namunali bo'lishi kerak.

Raqamli ta'lim texnologiyalari musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini yangi darajaga olib chiqadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat o'quv jarayonini osonlashtiradi, balki o'qituvchilarning kasbiy va ijodiy ko'nikmalarini takomillashtirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar musiqa o'qituvchilari tayyorlash jarayonini zamonaviy va innovatsion darajaga ko'tarib, ularning nazariy, amaliy va ijodiy imkoniyatlarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa ta'lim sifatini yaxshilash va o'qituvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishning eng muhim omillaridan biridir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lif to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
2. G.M.Davronova "Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar" fanini takomillashtirish talabalar kasbiy kompitentligini rivojlantirishning muhim omili sifatida. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDU ilmiy axborotnomasi - 2023-yil_12-son.
3. G.M. Davronova. Musiqa o'qitishda innovatsion texnologiyalar [Matn]: darslik /O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti – Samarqand.: "STEP-SEL" MCHJ nashriyoti, 2024 - 302 bet.
4. M. Samatova "Raqamli ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lif jarayonini baholashni takomillashtirish" Raqamli ta'lifning zamonaviy tendentsiyalari va ularni ta'lif-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo'llari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil